



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 474 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari	98
Umurov Sharif Rajabovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash	102
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта	106
Панжиева Назолат Норматомовна	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации	111
Тураева Дилфуза Даминовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	116
Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy	120
Inomidinova Dildorxon Ikramovna	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
M. S. Usmonova	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners	130
Tahirova Shaxribonu	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
Хамидова Нигора Тулкуновна	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvida murabbiy shaxsining roli	142
Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiroital paradigmalarning mohiyati	151
Ashurova Gulru	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract	162
Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida)	170
Jabborova Muslima Toxirovna	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari	175
Karimova Barno Ergashevna	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	178
Mamanazar Djumayev	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari	187
Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi	191
Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari... ..	195
Nishanova Zulfizar Yashin qizi	

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish	199
<i>Nozimabonu Tojiboyeva</i>	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
<i>O'ktamova Shohida Odilbek qizi</i>	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
<i>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</i>	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi	214
<i>Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	222
<i>Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi</i>	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish	228
<i>Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna</i>	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar	233
<i>N. S. Mirbabayeva</i>	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari	237
<i>Kamalov Rustam Azizovich</i>	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
<i>Shamsiyeva Sevara Yusupovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	244
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish	248
<i>Toshtemirova Sarvinoz Obidovna</i>	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida	251
<i>Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
<i>G'ofurova Umida O'tkirbek qizi</i>	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
<i>Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	262
<i>Xalikova Xurshida Abdullayevna</i>	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna</i>	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf	272
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloyeva Dilnura Samandarovna</i>	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
<i>Xudoyberdiyeva G. Sh.</i>	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
<i>Аманова А. А., Саттарова М.</i>	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность	285
<i>Каримова Наргиза Абдугафуровна</i>	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	289
<i>Toxirov Feruz Jamoliddinovich</i>	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi	293
<i>Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari	300
<i>Xodjayeva Matlyuba Rustamovna</i>	
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish	304
<i>Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga doir bilimlarni shakllantirish	309
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Eshonqulova Uralbuvish Fayzullayevna</i>	
Brayl sistemasidagi boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanish	312
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Jo'raqulova Sharofat Baxtiyorovna</i>	
Метод параллельного переноса при делении угла с недоступной вершиной	315
<i>Эсонов Мунавваржон Мукумжонович</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida geometrik masalalarni yechish	318
<i>Sobirova Dinora Umidjon qizi</i>	
O'zbekistonda raqamli jamiyat sharoitida internetdan foydalanish savodxonligini oshirish muammolari va yechimlari	323
<i>Boboqulova Dildora Xolmamat qizi</i>	
Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyatida jadid ayollar ta'limiy qarashlarining namoyon bo'lishi	326
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Formation of Environmental Protection and "Green" Economy Concepts among School-Age Youth	329
<i>Kholmominova Oygul Jumayevna</i>	
Boshlang'ich sinf darslarining samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlar va ularning ahamiyati	333
<i>Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi</i>	
Bo'lajak surdopedagoglarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish	338
<i>Raximova Muniraxon Iloxomovna</i>	
XX asrning boshlarida Buxoroda jadidchilik harakati asoschilarining ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi	342
<i>Safarova Gulzoda Ismoilovna</i>	
O'smirlarda agressiv holatlar va deviant xulq-atvorning psixologik xususiyatlari	346
<i>Shaymardanova Nargiza Maxmanaxarovna</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida sportchilarning musobaqaoldi psixologik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	349
<i>Yigitaliyev Abubakir Farxodjon o'g'li</i>	
Shaxs rivojlanishida motivlarning ahamiyati: psixologik tahlil	354
<i>Sh. Mirabdullayeva</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	359
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Bo'linishga doir olimpiada masalalarini yechish metodikasi va ularning ilmiy-amaliy tahlili	365
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarda anonimlikni vujudga kelish omillari	369
<i>Abdullayeva Dilnoza Qurbonbek qizi</i>	
Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	374
<i>Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyevich</i>	
Bosma ommaviy axborot vositalarida ommaviy sportni keng targ'ib qilishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati	379
<i>Abdusalomov Doniyor Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida	383
<i>Ali Tursaotov</i>	
Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning sanogen refleksiyani rivojlantirishga doir pedagogik imkoniyatlari	388
<i>Ismailov Murodulla Kaxramonovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Bo'lajak tarbiyachilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishga kasbiy tayyorgarligini shakllantirish	395
Madjitova Sitora Sobit kizi	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	399
Umbarova Nasiba Xolboy qizi	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish omillari	402
Ummatov Baxtiyor	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	407
Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboyev Navruz Ilhombek o'g'li	
Ta'lim tizimida gender tengligi.....	410
Nazarova Malohat Axmedovna, Sayfiddinova Barno, Axmedova Nasiba	
Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning mazmun-mohiyati.....	414
Odilova Mahfuza Ochilovna	
Koxlear implantli bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda ota-ona va surdopedagog hamkorligini rivojlantirish texnologiyasi.....	418
Rahimova Nargiza Alisherovna	
O'zbek tili darslarida milliy kontentga asoslangan matnlarni tanlash tamoyillari	421
Saparbayeva Indira Shadibekovna	
Autizm sindromi - o'rganilish tarixi va zamonaviy metodikalar tahlili	424
Jo'rayeva Sayyora Axmadjon qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiya jarayonini interaktiv metodlar asosida takomillashtirish	428
Sharafutdinova Durдона Akmelevna, Niyazova Umida Shomansurovna	
Tabiat bilan tanishtirishda turli metodlarni qo'llash va tabiat bilan tanishtirishning pedagogik ahamiyati	433
Xalmatov Misiddin Muxammadovich	
Kommunikativ qobiliyat tushunchasining psixologik mazmuni	437
Yuldasheva Mahliyo Bahtiyorovna	
Biotexnologiya fanini o'qitishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari	443
Moxigul Muydin qizi Burxanova	
Культура речи медицинского работника	447
Рузметова Наргиза Ахмедовна	
Образ города как пространства памяти и идентичности в прозе дины рубиной.....	454
Чернова Татьяна Алексеевна, Назаров Бехруз, Фарходов Диёрбек, Бурибайев Нодир	
Rang konseptlarining lingvomadaniy tabiati va pedagogik ahamiyati: nazariy asoslar	457
Arabova Gulinur Yuzboy qizi	
Rang konseptlarini o'qitishga oid xalqaro tadqiqotlar tahlili: ilmiy bo'shliqlar va metodologik istiqbollari	461
Arabova Gulinur Yuzboy qizi	
Типология трудностей формирования навыков иноязычного говорения в начальной школе.....	466
Огай Мукаддасхон Халваевна	



BOSMA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA OMMAVIY SPORTNI KENG TARG'IB QILISHNING PEDAGOGIK VA IJTIMOY AHAMİYATI

Abdusalomov Doniyor Rustam o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
 Jismoniy tarbiya va sport kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bosma ommaviy axborot vositalarida ommaviy sportni keng targ'ib qilishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Ommaviy sport aholining jismoniy faolligini oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yosh avlodga sportga qiziqish va ijtimoiy faollikni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida talqin qilinadi. Maqolada gazeta va jurnallar orqali beriladigan sportga oid materiallarning tarbiyaviy ta'siri, sport qadriyatlarini ommalashtirishdagi roli hamda sport ta'limi tizimi bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Bosma nashrlar sport faoliyatini faqat axborot sifatida yoritibgina qolmay, balki o'quvchi-yoshlarning irodaviy sifatleri, jamoaviylik, intizom, mas'uliyat va sog'lom raqobat madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik maydon sifatida ham baholanadi. Tadqiqotda ommaviy sport targ'ibotining ta'limiy, tarbiyaviy va ijtimoiy integratsion imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: bosma ommaviy axborot vositalari, ommaviy sport, sport targ'iboti, jismoniy faollik, sog'lom turmush tarzi, sport ta'limi, pedagogik ta'sir, ijtimoiy faollik.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical and social significance of promoting mass sports through print media. Mass sports are considered an important means of increasing physical activity, forming a healthy lifestyle, developing young people's interest in sports, and strengthening their social activity. The article analyzes the educational influence of sports-related materials published in newspapers and magazines, their role in popularizing sports values, and their connection with the system of sports education. Print media not only present sports activities as informational content but also function as a pedagogical space that contributes to the development of volitional qualities, teamwork, discipline, responsibility, and a culture of healthy competition among students and young people. The study reveals the educational, upbringing, and socio-integrative potential of mass sports promotion in the context of modern sports education.

Key words: print media, mass sports, sports promotion, physical activity, healthy lifestyle, sports education, pedagogical influence, social activity.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически раскрывается педагогическое и социальное значение широкой пропаганды массового спорта в печатных средствах массовой информации. Массовый спорт рассматривается как важное средство повышения физической активности населения, формирования здорового образа жизни, развития интереса к спорту и социальной активности у подрастающего поколения. В статье анализируется воспитательное воздействие спортивных материалов, публикуемых в газетах и журналах, их роль в популяризации спортивных ценностей, а также их взаимосвязь с системой спортивного образования. Печатные издания освещают спортивную деятельность не только как источник информации, но и выступают в качестве педагогического пространства, способствующего формированию у учащейся молодежи волевых качеств, коллективизма, дисциплины, ответственности и культуры здоровой конкуренции. В исследовании раскрываются образовательные, воспитательные и социально-интеграционные возможности пропаганды массового спорта.

Ключевые слова: печатные средства массовой информации, массовый спорт, пропаганда спорта, физическая активность, здоровый образ жизни, спортивное образование, педагогическое воздействие, социальная активность.

KIRISH

Bosma ommaviy axborot vositalari jamiyatda axborot tarqatish, ijtimoiy ongni shakllantirish va aholining turli qatlamlariga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar tez rivojlanayotgan hozirgi davrda ham gazeta va jurnallar o'zining tahliliy yondashuvi, ishonchli axborot berish imkoniyati hamda pedagogik-ma'rifiy ta'sir kuchi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ommaviy sportni keng targ'ib qilishda bosma nashrlarning o'rni beqiyosdir, chunki ular sportni faqat musobaqa yoki natija sifatida emas, balki sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy faollik, tarbiya va madaniyat omili sifatida yoritadi.

Ommaviy sport insonning jismoniy rivojlanishi, sog'lig'ini mustahkamlashi, mehnat qobiliyatini oshirishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlaydigan muhim ijtimoiy-pedagogik hodisadir. Sport bilan muntazam shug'ullanish yosh avlodga iroda, qat'iyat, intizom, jamoaviylik, mas'uliyat va maqsadga intilish kabi sifatlarni shakllantiradi. Shu sababli sport ta'limi tizimida ommaviy sportni targ'ib qilish nafaqat jismoniy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi, balki shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi tarbiyaviy mexanizm sifatida qaralishi lozim.

Bosma ommaviy axborot vositalarida sport mavzusidagi maqolalar, intervyular, tahliliy materiallar, sportchilar hayoti va faoliyatiga oid lavhalar, sog'lom turmush tarzi bo'yicha tavsiyalar o'quvchi-yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bunday materiallar orqali yoshlar sportning ijtimoiy ahamiyati, sog'liqni saqlashdagi roli va shaxsiy rivojlanishga ta'siri haqida tizimli tasavvurga ega bo'ladi. Ayniqsa, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak sport ta'limi mutaxassislar uchun bosma nashrlardagi sport targ'iboti kasbiy dunyoqarashni boyitadi, sportni ommalashtirish madaniyatini shakllantiradi va kelajakdagi pedagogik faoliyatda axborot-resurslardan samarali foydalanish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Shuningdek, bosma OAV ommaviy sportni targ'ib qilish orqali jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni qaror topirishga xizmat qiladi. Gazeta va jurnallarda yoritilgan sportga oid ijobiy namunalar aholining turli yosh guruhlarini jismoniy faollikka undaydi, oilaviy sport, mahalla sporti, talabalar sporti va havaskor sport harakatining rivojlanishiga ma'naviy turtki beradi. Shu jihatdan bosma ommaviy axborot vositalarida ommaviy sportni keng targ'ib qilishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyatini o'rganish sport ta'limi, jismoniy tarbiya nazariyasi hamda ommaviy kommunikatsiya jarayonlari kesishmasida dolzarb ilmiy masala sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ommaviy sportni bosma ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilish jismoniy tarbiya, sport pedagogikasi, ijtimoiy kommunikatsiya va sog'lom turmush tarzi madaniyati bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarida sport, axborot va ta'lim jarayonlarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni belgilangan. Prezident qarorlari va farmonlarida ommaviy sportni rivojlantirish, aholining jismoniy faolligini oshirish va yoshlarni sog'lom hayotga yo'naltirish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatiladi.

Salomov, Abdullayev, Xonkeldiyev, Kerimov va Matveev asarlarida jismoniy tarbiya nazariyasi, sport mashg'ulotlarini tashkil etish, sport faoliyatining tarbiyaviy imkoniyatlari ilmiy asoslangan. Mahmudov, Yusupov va Qodirov tadqiqotlarida sog'lom turmush tarzi, ommaviy sport va yoshlar tarbiyasi o'rtasidagi bog'liqlik yoritiladi. Umarovning ijtimoiy pedagogikaga oid qarashlari sport targ'ibotini shaxs ijtimoiylashuvi bilan bog'lash imkonini beradi.

Mo'minov, Toshpo'latov va McQuail ishlarida ommaviy kommunikatsiyaning ijtimoiy ongga ta'siri tahlil qilingan. Coakley esa sportni jamiyatdagi ijtimoiy institut sifatida talqin etib, uning madaniy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi. Shu bois mavjud adabiyotlar bosma OAVda sport targ'ibotini pedagogik hamda ijtimoiy jarayon sifatida o'rganish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda bosma ommaviy axborot vositalarida ommaviy sportni keng targ'ib qilishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan nazariy-tahliliy yondashuv asos qilib olindi. Mazkur yondashuv sport ta'limi, jismoniy tarbiya nazariyasi, ommaviy kommunikatsiya, ijtimoiy pedagogika va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga oid ilmiy qarashlarni o'zaro bog'liq holda o'rganish imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida bosma nashrlarning axborot berish, tarbiyalash, rag'batlantirish va ijtimoiy faollikka yo'naltirish funksiyalari alohida tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, mazmuniy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish va umumlashtirish metodlari tashkil etdi. Tizimli yondashuv bosma ommaviy axborot vositalarida sport targ'ibotini alohida axborot jarayoni sifatida emas, balki ta'lim, tarbiya, sog'liqni mustahkamlash va ijtimoiy ongni shakllantirish bilan bog'liq murakkab pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqishga xizmat qildi. Mazmuniy tahlil orqali gazeta va jurnallarda beriladigan sport mavzusidagi maqolalar, suhbatlar, tahliliy materiallar, sportchilar faoliyatiga oid lavhalar hamda sog'lom turmush tarziga bag'ishlangan tavsiyalarning tarbiyaviy yo'nalishi o'rganildi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida bosma nashrlardagi sport targ'ibotining ta'lim muassasalarida olib boriladigan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan bog'liqligini aniqlashga harakat qilindi. Bunda sportga oid axborotlarning o'quvchi-yoshlar dunyoqarashiga, sportga qiziqishiga, jismoniy faollikka bo'lgan ehtiyojiga va sog'lom hayotiy pozitsiyasiga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilindi. Pedagogik kuzatish elementi esa sport ta'limi muhitida talabalar va yoshlarning bosma nashrlardagi sport materiallariga munosabatini, ulardan o'quv-tarbiyaviy jarayonda foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi.



Tadqiqot davomida ommaviy sport targ'ibotining asosiy pedagogik ko'rsatkichlari sifatida sportga qiziqishning ortishi, sog'lom turmush tarziga ijobiy munosabatning shakllanishi, jamoaviylik va intizom sifatlarining rivojlanishi, ijtimoiy faollikning kuchayishi hamda sport qadriyatlarini anglash darajasi belgilandi. Ijtimoiy ko'rsatkichlar esa aholining jismoniy faollikka jalb qilinishi, sport tadbirlarida ishtirok etish motivatsiyasi, mahalla, oila va ta'lim muassasasi hamkorligining kuchayishi bilan izohlandi. Shu asosda bosma ommaviy axborot vositalari ommaviy sportni rivojlantirishda pedagogik ta'sir manbai va ijtimoiy faollashtiruvchi kommunikativ vosita sifatida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bosma ommaviy axborot vositalarida ommaviy sportni keng targ'ib qilish sport ta'limi jarayonida muhim pedagogik resurs vazifasini bajaradi. Gazeta va jurnallarda chop etiladigan sportga oid maqolalar, tahliliy materiallar, suhbatlar va tavsiyalar o'quvchi-yoshlarning sportga qiziqishini oshirish, jismoniy faollikka bo'lgan ijobiy munosabatini mustahkamlash hamda sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bosma nashrlarda sportchilar hayoti, ularning mehnat-sevarligi, iroda kuchi, intizomi va erishgan natijalari haqida beriladigan materiallar yoshlar uchun tarbiyaviy namuna bo'lib xizmat qiladi.

O'rganilgan nazariy manbalar va pedagogik tahlillar asosida bosma OAVning ommaviy sport targ'ibotidagi ta'siri bir nechta yo'nalishda namoyon bo'lishi aniqlandi. Birinchidan, u sport haqidagi axborotlarni aholiga tushunarli, tizimli va ta'sirchan shaklda yetkazadi. Ikkinchidan, sportni kundalik hayot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida talqin etadi. Uchinchidan, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, salbiy odatlardan saqlanish va ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltirishga yordam beradi. To'rtinchidan, ta'lim muassasalari, oila va jamoatchilik o'rtasida sportga oid ijtimoiy hamkorlikni kuchaytiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, bosma nashrlardagi sport materiallari pedagogik jarayonda qo'shimcha o'quv-tarbiyaviy manba sifatida foydalanilganda talabalarda sport madaniyati, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va sog'lom hayotiy pozitsiyani shakllantirish imkoniyatlari kengayadi. Sport ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bunday materiallar kelajak kasbiy faoliyatida ommaviy sportni targ'ib qilish, yoshlarni sport mashg'ulotlariga jalb etish va sport tadbirlarini ijtimoiy-pedagogik mazmunda tashkil etish bo'yicha amaliy tasavvur beradi.

Shuningdek, bosma OAV orqali beriladigan sport targ'iboti jamiyatda jismoniy faollik madaniyatini rivojlantirish, turli yosh guruhlarini sportga jalb qilish va sog'lom ijtimoiy muhitni mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlandi. Bu esa ommaviy sportni targ'ib qilishni faqat axborot tarqatish jarayoni emas, balki tarbiyaviy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik faoliyat sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Bosma ommaviy axborot vositalarida ommaviy sportni targ'ib qilish masalasi sport ta'limi va ijtimoiy tarbiya jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Chunki ommaviy sport faqat jismoniy mashqlar tizimi emas, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, sog'lom hayotiy qadriyatlarni qabul qilishi, o'z salomatligiga ongli munosabatda bo'lishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vositadir. Bosma nashrlar esa ushbu jarayonda axborotni tarqatish bilan birga, uni tahlil qilish, tushuntirish va tarbiyaviy mazmun bilan boyitish imkoniyatiga ega.

Raqamli axborot vositalari keng tarqalgan bo'lsa-da, gazeta va jurnallarning ta'siri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bosma materiallar odatda chuqur tahlil, izchil bayon, dalillarga asoslangan yondashuv va ma'rifiy mazmun bilan ajralib turadi. Shu sababli sport mavzusidagi maqolalar o'quvchi-yoshlar uchun nafaqat yangilik manbai, balki sportning ijtimoiy, axloqiy va tarbiyaviy mohiyatini anglash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, sportchilar hayoti, ularning mashg'ulot jarayoni, g'alabaga erishish yo'lidagi mehnati, iroda va sabr-toqati haqida yoritilgan materiallar yoshlarda ijobiy motivatsiya uyg'otadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan bosma OAVdagi sport targ'iboti sport ta'limi jarayonini boyituvchi qo'shimcha resurs sifatida baholanishi mumkin. Sport ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bunday materiallar orqali ommaviy sportning jamiyatdagi o'rni, sport tadbirlarini ommalashtirish usullari, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish shakllari va axborot bilan ishlash madaniyatini o'zlashtiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida sportni pedagogik va ijtimoiy mazmunda tashkil etish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, bosma nashrlarda sport targ'ibotining samaradorligi materiallarning mazmuni, tili, auditoriyaga mosligi va tarbiyaviy yo'nalishiga bog'liq. Sport haqidagi axborotlar faqat musobaqa natijalari yoki mashhur sportchilar bilan cheklanib qolmasligi, balki ommaviy sport, oilaviy sport, talabalar sporti, ayollar sporti, imkoniyati cheklangan shaxslar sporti va sog'lom turmush tarzi masalalarini ham qamrab olishi lozim. Bunday yondashuv bosma OAVning ijtimoiy ta'sir doirasini kengaytiradi va ommaviy sportni aholining kundalik hayot madaniyatiga aylantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bosma ommaviy axborot vositalarida ommaviy sportni keng targ'ib qilish sport ta'limi, jismoniy tarbiya va ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, gazeta va jurnallarda sportga oid materiallarning muntazam yoritilishi yoshlar va keng jamoatchilikda jismoniy faollikka ijobiy munosabatni shakllantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sport madaniyatini rivojlantirish hamda jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bosma nashrlar sportni faqat axborot yoki musobaqa natijasi sifatida emas, balki tarbiya, ma'naviyat, ijtimoiy faollik va shaxs kamoloti bilan bog'liq pedagogik hodisa sifatida yoritish imkoniyatiga ega.

Ommaviy sport targ'ibotining pedagogik ahamiyati shundaki, u yosh avlodda iroda, intizom, mas'uliyat, jamoaviylik, qat'iyat, sog'lom raqobat va o'zini boshqarish kabi muhim sifatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Ayniqsa, sport ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bosma OAV materiallari kelajak kasbiy faoliyatida ommaviy sportni tashkil etish, yoshlarni sportga jalb qilish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarni boyitadi. Shu bois sportga oid maqolalar, intervyular, tahliliy materiallar va tavsiyalar ta'lim jarayonida qo'shimcha pedagogik resurs sifatida qo'llanishi maqsadga muvofiqdir.

Bosma OAVning ijtimoiy ahamiyati esa aholining turli qatlamlarini sportga jalb etish, oilaviy sport, mahalla sporti, talabalar sporti va havaskor sport harakatini qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ladi. Bunday targ'ibot jamiyatda salomatlikni qadrlash, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish va faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun bosma ommaviy axborot vositalarida ommaviy sportni keng targ'ib qilish izchil, mazmunli, tarbiyaviy yo'naltirilgan va auditoriya ehtiyojlariga mos holda tashkil etilishi lozim. Bu jarayon sport ta'limi samaradorligini oshirish, yoshlarning sportga barqaror qiziqishini shakllantirish va sog'lom jamiyatni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son qarori. (2017).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5924-son farmoni. (2020).
3. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. (2015).
4. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni. (2007).
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020).
6. Salomov, R. S. (2005). Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. O'zDJTI nashriyoti.
7. Abdullayev, A., & Xonkeldiyev, Sh. X. (2005). Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O'zDJTI nashriyoti.
8. Kerimov, F. A. (2001). Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Zar qalam.
9. Matveev, L. P. (1991). Teoriya i metodika fizicheskoy kultury. Fizkultura i sport.
10. Nurimov, R. I. (2005). Futbol nazariyasi va uslubiyati. O'zDJTI nashriyoti.
11. Rasulev, A. T. (2018). Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. Fan va texnologiya.
12. Tursunov, U. T. (2019). Sport pedagogikasi va jismoniy tarbiya metodikasi. Innovatsiya-Ziyo.
13. Mahmudov, M. X. (2020). Yoshlarni sog'lom turmush tarziga tayyorlashning pedagogik asoslari. Fan.
14. Yusupov, K. T. (2017). Ommaviy sportni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik omillari. Ilm ziyo.
15. Qodirov, A. A. (2021). Sport targ'iboti va sog'lom turmush madaniyati. Tafakkur nashriyoti.
16. Umarov, B. M. (2016). Ijtimoiy pedagogika. Fan va texnologiya.
17. Mo'minov, F. A. (2008). Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. Universitet nashriyoti.
18. Toshpo'latov, N. T. (2019). Ommaviy kommunikatsiya nazariyasi va amaliyoti. Iqtisod-moliya.
19. McQuail, D. (2010). McQuail's mass communication theory. Sage Publications.
20. Coakley, J. (2017). Sports in society: Issues and controversies. McGraw-Hill Education.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.